

Discussion on how to teach grammar effectively and how to provide effective grammar practice for students has always been a major concern for both language teachers and learners. In order to make a grammar instruction meaningful, there are some reason to take into consideration: students need to think critically when given grammar concepts and rules; they have a better understanding of grammar if the grammar instruction is sequenced; students need regular practice of what they are being taught; students need to acquire grammatical skills that will allow them to be able to transfer their comprehension of grammar knowledge to reading, writing, and real life. Brown [2;98] mentioned that grammar should be taught in accurate communicative contexts, thus encouraging fluency and accuracy. He also offered a set of guidelines for teaching grammar for effective communication: simple explanations, clear examples, relevant visual teaching aid; grammar should be presented in an interesting, motivating way for the students, taking into account learners' cognitive style, as well.

REFERENCES

1. Batstone, R. and R. Ellis. 2009. Principled grammar teaching. System 37: 194–204
2. Brewster, J., Ellis, G. & Girard, D. 1992. The Primary English Teacher's Guide. London: Penguin.
3. Brown, H. Douglas. 1994. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. New Jersey: Prentice Hall.
4. Canale, M. And M. Swain. 2006. "Theoretical Bases of Communicative Approach to Second Language Teaching and Testing". Applied Linguistics 7/1-74.
5. Celce Murcia, Maianne (Ed). 2001. Teaching English as a Second Foreign Language. Boston, MA: Heinle and Heinle Thomson Learning.
6. Coghill, Jeffrey and Stacy, Magendanz. 2003. English Grammar. New York: Wiley Publishing, Inc.
7. Cross, David. 1995. A Practical Hand book of Language Teaching. London: Phoenic ELT.
8. Harmer, Jeremy. 2010. How to Teach English: An Introduction to the Practice of English Language Teaching. Essex: Longman.

TA'LIMDA BAHOLASHNING AHAMIYATI VA MAZMUN MOHIYOTI

*Davletmuratova Ulbosin Maxsetovna
NDPI Ingliz tili va adabiyoti 1 bosqich doktoranti*

Ta'lim–insonni hayotga tayorlash uchun unga keraklibilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni bo'libhisoblanadi. Ta'lim jamiyat qurilishining muhim muammolarini hal qilish–jamiyatning moddiy-texnika bazasini yaratish, ijtimoiy munosabatlarni tarkib toptirish, yangi kishini tarbiyalashga katta rol oynaydi. Ta'limning maqsadi, xarakteri, yo'nalishlari obyektiv hayot talablariga muvofiq holda o'zgarib boradi. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan „Ta'lim to'g'risida“gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta'lim tizimining barcha yo'nalishlarini takomillashtirish va rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochib berdi. Mamlakatimizda xalq ta'limi bo'limlari qoshida bolalarni maktab ta'limiga tayyorgarligini belgilaydigan „Tashhis markazlari“ tashkil etildi, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini reyting asosida nazorat qilish, maktab bitiruvchilarini yakuniy attestatsiyasini kompyuter yordamida test orqali amalga oshirish, ta'lim amaliyotini diagnostik taxlil qilish, ta'lim muassasalarida marketing tizimidan foydalanish kabi qator pedagogik yangiliklar joriy etildi. Hozirgi sharoitda ijtimoiy talablar, o'quvchilarning imkoniyati va ehtiyojlariga muvofiq ta'lim tobora takomillashtirilib, yangi metod va shakllari ishlab chiqilmoqda.

Ta'lim tizimining samarasini belgilovchi asosiy qismlaridan biri -bu baholash tizimidir. Komil Jolilov "Baholash – biron-bir domenning (bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar majmuyining) ta'lim oluvchilarda (test topshiruvchilarda) shakllanganlik darajasini o'lchash jarayoni" [1;10]desa, Oxford lug'ati baholash bu "talabalarni sinovdan o'tkazish va ularning bilimi, qobiliyati va taraqqiyoti haqida hukm chiqarish jarayoni" deb ko'rsatadi. Bu fikrlar bilan

kelishgan holda biz baholashni ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarini aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayon deb hisoblaymiz, va bu jarayon bizga olingan bilimlar bo'yicha ma'lumotlarni tizimli yig'ish, tahlil qilish va ulardan foydalanishga imkon beradi. Chunki, baholash tizimi o'qitish sohasida teskari a'loqa tizimi hisoblanib, ta'lim natijalarini bevosita kuzatish, monitoring olib borish, ta'limda oqitish taktikasini tanlash va ta'lim oluvchilarda rivojlantirish ta'moyilini shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Baho, nafaqat o'quvchilarning har biri nimalarni bilishi, nimalarni tushunishi va nimalarga qodir ekanligi to'g'risida ma'lumot beradi balki ularning natijalari jarayonning barcha ishtirokchilari jumladan o'quvchilar, ota-onalar, o'qituvchilar uchun ahamiyatli bo'lib, o'quv rejalarini va o'qitish metodikasini yaxshilash maqsadida qo'llaniladi.

Baholash jarayoni o'zining belgilangan tartibi va qoydalarini to'liq saqlagan holda olib borishni taqozo etadi. Mark Wilson va Kathleen Scalise fikrincha: "Samarali baholash usullari o'rganish jarayonida kuchli rol o'ynashi mumkin, masalan, o'rtacha o'qiydigan o'quvchini sinfning birinchi uchligiga ko'tarishi mumkin - lekin faqat ma'lum bir shartlar bajarilgan taqdirdagina. Talabalar bajaradigan topshiriqlar ta'lim maqsadlariga mos kelishi yoki maqsadga muvofiq bo'lishi kerak, va talabalar o'z natijalari bo'yicha mazmunli va o'z vaqtida fikr-mulohazalarini olishlari, shuningdek, maqsadli ishlarni bajarishlari kerak. O'z ta'limini samarali tartibga solish uchun talabalar uchta narsani tushunishlari kerak: (a) ular qanday baholanishi kerakligi, (b) ularning bilim darajalari qaysi bosqichda turganligini va (c) ularni qanday yaxshilash mumkinligini". [2;635]

Ko'rib turganimizdek, baholash ta'limda juda katta ahamiyatga ega, asosan o'quvchilar o'rtasida o'zlashtirilganlik to'g'risida ma'lumot olinadi, savol-javob jarayonida boshqa o'quvchilarga takrorlanish bo'ladi, bilim, ko'nikma va malakalar egallanadi hamda mustahkamlanadi, mashg'ulotning qaysi bo'lagiga yaxshiroq e'tibor berish kerakligi ma'lum bo'ladi, o'qituvchi o'z kamchiliklarini anglaydi, o'quvchi o'zining nimalarga qodir ekanligini biladi, davlat ta'lim standartlarining bajarilish darajasi aniqlanadi, ta'lim oluvchining o'rtoqlari, ota-onasi uning faoliyati xaqida ma'lumotga ega bo'ladi.

Baholash mezonlariga ijtimoiy, iqtisodiy va zamon talablariga qarab o'zgartirishlar kiritish kerak deb hisoblaydi olimlar. Atab aytadigan bo'lsak, Avstraliya olimlari Patrick Griffi va Esther Care "An'anaviy baholash shakllari yigirma birinchi asrning ko'plab ko'nikmalarini, ayniqsa kognitiv bo'lmagan deb hisoblanishi mumkin bo'lgan ko'nikmalarni tekshirish uchun mos kelmasligi mumkinligi" [3;7] ta'kidlaydi. Biz ham bu fikr tarafdorimiz, chunki bugungi kunda biz o'rganuvchilarimizning nafaqat bilim darajasini orttiramiz, balki ularning muloqatga tushish, boshqalar bilan ishlash, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, jamoani boshqarish, muammolarni echish, texnologiyadan foydalanish va haqoza kabi ko'nikma va maqoratini ham rivojlantiramiz, va albatta baholaymiz ham.

Mamlakatimizda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun baholash tizimiga yangi xalqaro baholash dasturlarini kiritish boyicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS va boshqalar. Bunday baholashga kiritilgan o'zgarishlar nafaqat o'quvchilarning bilimini baholashda alternativ uslublaridan foydalanishga imkon yaratadi, balki ta'limning yanada rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR:

1. Jolilov Komil. Baholash nazariyasi asoslari. Toshkent. "Akademnashr", 2020, 10b.
2. Mark Wilson & Kathleen Scalise. Assessment to improve learning in higher education: The BEAR Assessment System. University of California, Berkeley, USA. Higher Education (2006) 52: Springer 2006 DOI 10.1007/s10734-004-7263-y.
3. Patrick Griffi and Esther Care "Assessment and Teaching of 21st Century Skills", 2015, 5; 7b. Springer.